

ISLOM DININING MARKAZIY OSIYOGA KIRIB KELISHI VA TARQALISHI: TARIXIY, SIYOSIY VA SIVILIZATSION OMILLAR TAHLILI

Mamadiyeva Ozoda Azamat qizi

AIFU Ijtimoiy fanlar kafedrası Tarix yo'nalishi 2kurs magistratura bosqichi talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Islom dinining Markaziy Osiyo hududiga kirib kelishi va uning tarqalish jarayoni tarixiy, siyosiy hamda madaniy omillar nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqot VII–X asrlarda sodir bo'lgan siyosiy voqealar, arab istilosi, mahalliy ijtimoiy tuzilmalarning o'zgarishi hamda diniy transformatsiya jarayonlarini o'rganishga qaratilgan. Maqolada Islom dinining mintaqada mustahkamlanishida savdo aloqalari, siyosiy integratsiya va mahalliy hukmdorlarning roli alohida yoritilgan. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Markaziy Osiyoda Islom dinining tarqalishi faqat harbiy istilo natijasi emas, balki uzoq davom etgan ijtimoiy-madaniy transformatsiya jarayoni hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Islom, Movarounnahr, arab istilosi, Markaziy Osiyo, Islom sivilizatsiyasi, Somoniylar.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс проникновения и распространения ислама на территории Центральной Азии с точки зрения исторических, политических и культурных факторов. Исследование направлено на изучение политических событий VII–X веков, арабских завоеваний, изменений в местной социальной структуре и процессов религиозной трансформации. В статье особое внимание уделяется роли торговых связей, политической интеграции и местных правителей в укреплении ислама в регионе. Результаты исследования показывают, что распространение ислама в Центральной Азии было не только следствием военных завоеваний, но и длительным процессом социально-культурной трансформации.

Ключевые слова: ислам, Мавераннахр, арабские завоевания, Центральная Азия, исламская цивилизация, Саманиды, Караханиды.

Abstract: This article analyzes the process of the arrival and spread of Islam in Central Asia from historical, political, and cultural perspectives. The study focuses on the political events of the 7th–10th centuries, the Arab conquests, changes in local social structures, and processes of religious transformation. Particular attention is paid to the role of trade relations, political integration, and local rulers in the consolidation of Islam in the region. The results of the study show that the spread of Islam in Central Asia was not solely the result of military conquest but also a long-term process of socio-cultural transformation.

Keywords: Islam, Transoxiana, Arab conquest, Central Asia, Islamic civilization, Samanids, Karakhanids.



KIRISH

Markaziy Osiyo qadimdan Sharq va G'arb sivilizatsiyalarini bog'lovchi muhim geosiyosiy hudud hisoblangan. Ayniqsa Movarounnahr hududi Buyuk Ipak yo'lining markaziy qismlaridan biri sifatida turli madaniyatlar, dinlar va siyosiy tizimlarning o'zaro ta'sir maydoni bo'lib xizmat qilgan.

VII–VIII asrlarda Islom dinining mintaqaga kirib kelishi Markaziy Osiyo tarixida muhim burilish yasadi. Islom dini nafaqat diniy e'tiqod sifatida, balki ijtimoiy, siyosiy va madaniy tizim sifatida ham mintaqaga taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu jarayon Umaviylar xalifaligi tomonidan olib borilgan harbiy yurishlar, ayniqsa arab qo'mondoni Qutayba ibn Muslim boshchiligida boshlanib, biroq, islomlashtirish jarayoni harbiy istilolardan ancha uzoqqa cho'zildi va asta-sekin ijtimoiy, madaniy integratsiya, iqtisodiy rag'batlantirish orqali mustahkamlandi (Hodgson, 1974)¹².

Adabiyotlar tahlili.

Islomdan avvalgi diniy-madaniy muhit. Markaziy Osiyo hududi islom dini bu hududlarga kirib kulguncha bo'lgan davrda diniy e'tiqodlar va ma'naviy qarashlar rang-barangligi bilan ajralib turgan. Miloddan avvalgi VII—VI asrlarda Markaziy Osiyoda boshqaruvi tizimi qabilaviy ittifoqlar va urug'-aymoqchilik munosabatlariga asoslangan Xorazm va Baqtriya kabi qadimgi davlat birlashmalari vujudga kelgan.¹³ Bu mamlakatlar mintaqada uzoq vaqt davom etib kelgan ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy jarayonlarning hosilasi bo'lgan. Ular ta'sirida jamiyatda tutgan o'rni, imkoniyatlari va ahamiyatiga ko'ra bir-biridan farq qiladigan guruhlar, ijtimoiy sinfiy tabaqalar yuzaga kelgan. Mazkur hudud qadimdan turli sivilizatsiyalar chorrahasida joylashgan bo'lib, Sharq bilan G'arbn bog'lab turuvchi Buyuk Ipak yo'li orqali turli dinlar va madaniyatlar qorishuvida rivojlanib kelgan. Shu bois, islom dini kirib kelishidan avval Markaziy Osiyoda bir nechta yirik diniy oqimlar va mahalliy e'tiqod shakllari mavjud bo'lgan. Ularning eng muhimlari zardushtiylik, buddizm, shamanizm va mahalliy e'tiqodlar hisoblanadi.

Zardushtiylik qadimgi davrlarda keng tarqalgan din bo'lib, "Avesto" muqaddas kitobiga asoslangan. Ushbu din yaxshilik va yomonlik o'rtasidagi kurash, adolat va poklik g'oyalarini ilgari surgan. Zardushtiylik jamiyatda axloqiy me'yorlar shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan.¹⁴

Buddizm ayniqsa Kushonlar davrida rivojlangan. Termiz, Balx va Samarqand kabi shaharlarda buddaviylik markazlari mavjud bo'lgan. Buddizm tinchlik, sabr-toqat va ruhiy poklanishni targ'ib qilgan.

¹² Hodgson, M. (1974). The venture of Islam: Conscience and history in a world civilization. Chicago: University of Chicago Press.

¹³ Нарбеков А. В. Диншунослик асослари: Ўқув қўлланмаси. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2008. — Б 75.

¹⁴ А.Қаюмов, М.Истоков, А.Отаҳужаев, Қ.Содиқов. "Қадимги ёзма ёдгорликлар". Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси Тарих институти, "Ёзувчи нашриёти", 2000. - Б 9.



Shuningdek, Ko'k Tangri e'tiqodi va shamanizm ham keng tarqalgan edi. Bu e'tiqodlar tabiat kuchlariga sig'inish, ajdodlar ruhlariga hurmat bilan bog'liq bo'lgan. Ushbu diniy qarashlar xalqning kundalik hayotida muhim o'rin tutgan.

Mazkur diniy tizimlar Markaziy Osiyoning qadimgi madaniy muhitini shakllantirgan. Shunga qaramay, VIII–X asrlarga kelib Islom dini mintaqaning asosiy diniy va madaniy tizimiga aylandi.

Markaziy Osiyoda Islomning tarqalishi masalasi ko'plab tarixchilar tomonidan o'rganilgan. Mashhur sharqshunos Vasily Bartold o'z tadqiqotlarida Turkiston tarixini chuqur tahlil qilib, arab istilosining siyosiy jarayonlarga ta'sirini ko'rsatgan.¹⁵ Amerikalik tarixchi Richard N. Frye Markaziy Osiyoni Islom sivilizatsiyasining muhim madaniy markazlaridan biri sifatida tavsiflaydi.¹⁶ Bundan tashqari, Marshall Hodgson Islom sivilizatsiyasining rivojlanishida Movarounnahr hududining ilmiy va madaniy ahamiyatini alohida ta'kidlagan. Arab istilolari tarixi bo'yicha Hugh Kennedy tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur maqolada tarixiy-tahliliy metod, komparativ metod ilmiy metodlarga asoslangan holda tadqiq etildi.

Arab istilosi va Islomning kirib kelishi. Markaziy Osiyoga arab qo'shinlarining kirib kelishi VII asrning ikkinchi yarmidan boshlanadi. Arablar dastlab Eron hududlarini egallab, keyinchalik Amudaryodan o'tib Movarounnahr yurish boshlagan. VIII asr boshlarida mashhur sarkarda Qutayba ibn Muslim Movarounnahr hududida bir qator harbiy yurishlarni amalga oshirdi.

Uning yurishlari natijasida quyidagi yirik shaharlar arablar nazoratiga o'tdi:

- Buxoro
- Samarqand
- Xorazm

Dastlabki davrlarda mahalliy aholi arab istilosiga qarshilik ko'rsatgan. Biroq vaqt o'tishi bilan islom dini asta-sekin qabul qilina boshlagan. Bu jarayonda savdo, ta'lim va tasavvuf muhim rol o'ynagan. Islomning tarqalishida sahobalar, tobeinlar va ulamolarning faoliyati katta ahamiyatga ega bo'lgan. Masalan, Qusam ibn Abbos Samarqandda islomni targ'ib qilgan.

Islomning ijtimoiy va iqtisodiy omillari.

➤ Islomni qabul qilmagan aholidan jizya solig'i olinishi yangi dinni qabul qilishni rag'batlantirgan.

➤ Buyuk Ipak yo'li orqali musulmon savdogarlar Islom madaniyatini yoyishda muhim rol o'ynagan.

¹⁵ Bartold, V. (1928). *Turkestan down to the Mongol invasion*. Oxford University Press.

¹⁶ Frye, R. (1996). *The heritage of Central Asia*. Princeton University Press.



➤ Mahalliy hukmdorlarning Islomni qabul qilishi diniy tizimning legitimligini oshirgan.

751-yilda sodir bo'lgan Talas jangi Markaziy Osiyo tarixidagi muhim voqealardan biri hisoblanadi. Mazkur jangda Arab xalifaligi qo'shinlari Tang Xitoy armiyasini mag'lub etdi. Natijada:

- Xitoyning Markaziy Osiyodagi siyosiy ta'siri kamaydi
- Islom madaniyatining tarqalishi uchun qulay sharoit yaratildi

Ba'zi tarixchilarning fikriga ko'ra, ushbu voqea orqali qog'oz ishlab chiqarish texnologiyasi ham Islom dunyosiga kirib kelgan.

Markaziy Osiyoda ilm-fan rivoji. IX–XII asrlarda Movarounnahr hududida Islom madaniyati yanada mustahkamlandi. Bu davrda Somoniylar, Qoraxoniylar va Xorazmshohlar kabi mahalliy sulolalar hukmronlik qilgan. Ushbu davr islomning rivojlanishida muhim bosqich hisoblanadi. Somoniylar davrida islom davlat dini sifatida mustahkamlandi. Buxoro va Samarqand yirik ilmiy markazlarga aylandi. Hadis, fiqh, tafsir va kalom fanlari rivojlandi. Islomning mustahkamlanishi natijasida mintaqada ko'plab buyuk allomalar yetishib chiqdi. Ular orasida: Imom al-Buxoriy, Imom Abu Mansur al-Moturidiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sina kabi buyuk allomalar bo'lib, ularning ilmiy merosi bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. Qoraxoniylar davrida islom turkiy xalqlar orasida keng yoyildi. Masjidlar, madrasalar va vaqf tizimi rivojlandi. Xorazmshohlar davrida esa islom ilm-fani va madaniyati yanada yuksaldi. Bu davrda islom nafaqat diniy, balki siyosiy va huquqiy tizimning asosiga aylandi.

Islom dini kirib kelishi bilan Markaziy Osiyoda bir qator madaniy o'zgarishlar yuz berdi. Bular:

- arab yozuvi keng tarqaldi
- masjid va madrasalar qurildi
- ilmiy maktablar shakllandi

Bu jarayonlar mintaqaning Islom sivilizatsiyasidagi muhim ilmiy markazga aylanishiga sabab bo'ldi.

Xulosa.

Markaziy Osiyoda islom dini ming yildan ortiq tarixga ega bo'lib, mintaqaning madaniy, ilmiy va ijtimoiy rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan. Islom dastlab arab istilolari orqali kirib kelgan bo'lsa-da, keyinchalik mahalliy madaniyat bilan uyg'unlashib, o'ziga xos shaklga ega bo'ldi.

Dastlab harbiy istilo orqali boshlangan bu jarayon keyinchalik siyosiy integratsiya, iqtisodiy manfaatlar va madaniy almashinuv orqali mustahkamlandi.

Mahalliy sulolalar davrida islom ilm-fani rivojlandi, buyuk allomalar yetishib chiqdi.





Tasavvuf orqali esa islom xalq orasida mustahkam oʻrnashdi. Natijada IX–X asrlarga kelib Markaziy Osiyo Islom sivilizatsiyasining muhim ilmiy va madaniy markazlaridan biriga aylandi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI.

1. Bartold, V. Turkestan down to the Mongol invasion. Oxford University Press. (1928).
2. Frye, R. The heritage of Central Asia. Princeton University Press. (1996).
3. Hodgson, M. The venture of Islam. Chicago University Press. (1974).
4. Нарбеков А. В. Диншунослик асослари: Ўқув қўлланмаси. - Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2008.
5. А.Қаюмов, М.Истоков, А.Отахужаев, Қ.Содиқов. “Қадимги ёзма ёдгорликлар”. Ўзбекистан Республикаси Фанлар академияси Тарих институти, “Ёзувчи нашриёти”, 2000.

